Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining
2026-yil "30" mart dagi
269-son buyrug'iga
4-ILOVA

Autsorsing asosida ovqatlanish xizmatlarini taqdim etish bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash yuzasidan tanlash hujjatlarining
NAMUNAVIY SHAKLI

TASDIQLAYMAN
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i

I. Xodjiyev
_____2026-y.

"Namangan viloyat Uychi tumanidagi 1-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti autsorsing usulida ovqatlanish xizmatlarini taqdim etish bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash yuzasidan

TANLASH HUJJATLARI

_____ – 2026-y.

MUNDARIJA

1. **Tanlash ishtirokchisi uchun yo‘riqnoma;**
2. **Tanlash hujjatining texnik qismi;**
3. **Tanlash hujjatining narx qismi.**

TANLASH HAQIDA AXBOROT JADVALI

Tashkilotchi nomi *(tegishli hududiy boshqarma):*	**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi Namangan viloyati boshqarmasi**
Tashkilotchining manzili *(tegishli hududiy boshqarma):*	Namangan shaxar
Buyurtmachi *(tizim tashkiloti):*	**"Namangan viloyat Uychi tumanidagi 1-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti "**
Buyurtmachining manzili *(tizim tashkiloti, bevosita xizmat ko'rsatiladigan tizim tashkilotining manzili):*	Uychi tumani Beruniy MFY G'ofur G'ulom ko'chasi
Qo'llaniladigan SanQvaN	0048-23 – son qarori
Ko'rsatiladigan xizmatlar nomi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi tashkilotlarda sog'lom ovqatlantirish xizmatlarini autsorsing asosida ko'rsatish.
Ishlarni bajarish muddati	Autsorsing shartnomasi bir moliya yiliga tuziladi. *(2026-yil 1-oktabrdan 2026-yil 31-dekabrgacha).*
To'lov shartlari	To'lovlar bajarilgan xizmatlar bo'yicha dalolatnoma hamda hisob-faktura *(elektron hisobvaraq-faktura)* asosida, Axborot tizimida shakllantirilgan "Kishi-kun" ma'lumotlari bilan solishtirilgan holda amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi: Buyurtmachi tomonidan avvalgi oyda ovqatlanish uchun amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarning 30 foizi miqdorida oldindan to'lov *(avans)* amalga oshiriladi; – Oy yakuni bo'yicha tuzilgan taomnoma hamda amalda ovqatlangan tarbiyalanuvchilar *(yashovchilar)* [illegible] oziq-ovqat mahsulotlari qiymatiga Autsorserning ustama haqi qo'shilgan holda yakuniy hisob-kitob amalga oshiriladi, bunda avval to'langan avans summasi chegirib tashlanadi. Taomnoma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari narxlari Autsorser tomonidan Axborot tizimiga kiritilgan narxlardan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi. Mazkur narxlar mahalliy hokimliklar tomonidan tasdiqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha bozor narxlaridan oshmasligi lozim *(o'rtacha bozor narxlari har oyning 25 sanasiga qadar tasdiqlanadi).* Mahalliy hokimliklar tomonidan tasdiqlangan narxlar Autsorser tomonidan ko'rsatilgan narxlardan past bo'lgan hollarda, hisob-kitoblar uchun mahalliy hokimlik tomonidan tasdiqlangan narxlar inobatga olinadi.
Tanlash taklifining ta'minoti miqdori	Kamida 1 %
To'lov valyutasi	O'zbek so'mi

Tanlash taklifining amal qilish muddati	30 kalendar kun
Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati	Tanlash takliflarini berish muddatining oxirgi sanasi sifatida belgilangan kundan boshlab 7 ish kunidan oshmaydi
Tanlashning boshlang‘ich narxi va hisobi*	Umumiy qiymat: **140 000 000** so‘m, bir nafar bola (tarbiyalanuvchi, yashovchi) uchun 21000 so‘m (ko‘rsatilgan summaga 30 foiz ustama haq kiritilgan holda).**
Moliyalashtirish manbai	Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan
Mas’ul xizmat, bog‘laniladigan shaxs, telefon, el. pochta	

** Tanlash qo‘llanilgan ustama foiziga nisbatan o‘tkaziladi.*

*** Ustama buyurtmachining xarajatlar smetasida belgilangan foizlarda qo‘llaniladi.*

I. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

		1.1		Ushbu Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–684-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridiga doir Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini va texnik topshiriqlarni kompleks ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-dekabrdagi 810-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimdagi tashkilotlarda ayrim xizmatlarni ko‘rsatishni autsorsing asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2		**Tanlash predmeti:** Autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha.
		1.3		**Tanlash o‘tkazish uchun asos:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimdagi tashkilotlarda ayrim xizmatlarni ko‘rsatishni autsorsing asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 810-son qarori.
1	Umumiy qoidalar.	1.4		**Tanlashning umumiy boshlang‘ich narxi:** Autsorsing xizmatlariga haq to‘lash miqdorlari Buyurtmachi tomonidan tegishli xizmat tannarxiga *(soliqlar, ish haqi, moddiy xarajatlar, bilvosita xarajatlar)* autsorserning xarajatlarini qoplash maqsadida 30 foizgacha ustama haqni hisobga olgan holda belgilanadi. Umumiy qiymat: **140 000 000** so‘m, bir nafar bola *(tarbiyalanuvchi, yashovchi)* uchun *(ko‘rsatilgan summaga 30 foiz ustama haq kiritilgan holda).* Tanlash taklifida ko‘rsatilgan narxlar boshlang‘ich narxdan hamda 30 foiz ustama haqdan oshmasligi kerak. Buyurtmachi muassasasiga shartnoma umumiy summasining kamida 1 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda (uskunalar, inventar, ta’mirlash va boshqalar) investitsiya kiritishi shart.
		1.5		Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a’zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar *(telekonferensiyalar va hokazo)* shaklida o‘tkazilishi mumkin. Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanilgan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.
		1.6		Tanlash o‘tkazish shakli – ochiq. Tanlash o‘tkaziladigan joyning manzili: e-tender.uzex.uz elektron savdo platformasi.
		1.7		Ushbu Tanlash hujjatlarida foydalaniladigan asosiy tushunchalar: atama ta’rifi – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, operatorning vositachilik yig‘imini va tomonlarning zakalatini o‘z ichiga olgan moliyaviy mablag‘lar summasi.

		1.8		**taklifni ta'minlash** – buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta'minlanishi.
		1.9		**davlat xaridlari elektron tizimining operatori** *(keyingi o'rinlarda – operator)* – davlat xaridlarining subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir.
		1.10		**shaxsiy kabinet** – elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta'minlaydigan, buyurtmachi yoki xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portaldagi individual sahifasi.
		1.11		**hisob-kitob-kliring palatasi** *(bundan buyon matnda HKKP deb yuritiladi)* – avans to'lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo'li bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlarga kirishini ta'minlovchi Operatorning tarkibiy bo'linmasi.
		1.12		**davlat xaridlarining elektron tizimi** *(bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi)* – elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari subyektlarining hamkorligini, elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillari o'tkazilishini ta'minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui.
		1.13		**elektron davlat xaridlari** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.
2	**Elektron Tanlash tashkilotchilari**	2.1		Tashkilotchi *(tegishli hududiy boshqarma)*: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmasi *(keyingi o'rinlarda – "Tashkilotchi")*.
		2.2		Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tegishli tizim tashkiloti *(keyingi o'rinlarda – "Buyurtmachi")*.
		2.3		Tashkilotchining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxs: MAXAMADALIYEVA NAZIRAXON ERKINBOYEVNA Manzil: Uychi tuman Beruniy MFY G'ofur G'ulom ko'cha 51-uy.
		2.4		Shartnoma egasi tegishli tizim tashkiloti: Uychi tumanidagi 1-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti
		2.5		Elektron Tanlash o'tkazuvchi operator va uning veb-saytiga havola: https://etender.uzex.uz/.
		2.6		Davlat xaridini Tanlash o'tkazish orqali amalga oshirish uchun Tashkilotchining kamida yetti nafar a'zodan iborat bo'lgan Xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.
3	**Elektron Tanlash ishtirokchilari**	3.1		Elektron Tanlash ishtirokchisi *(bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi)* elektron Tanlashda davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

		3.2		Ishtirokchi: - davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish; - tashkilotchiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o‘tkazish talablari va shartlari bo‘yicha so‘rovlar berish hamda ulardan tushuntirishlar olish; - davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish; - qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.
		3.3		- Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi; - xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lishi; - asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi; - g‘olib deb topilgan taqdirda, Buyurtmachi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.
		3.4		Buyurtmachi va Tashkilotchi bilan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi bo‘la olmaydi.
4	**Elektron Tanlashga kiritish**	4.1		Ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisob varaqlariga avans to‘lovlarini kiritganlaridan so‘ng elektron Tanlashga qo‘yiladi.
		4.2		Tashkilotchi, buyurtmachi va ishtirokchilar elektron xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan *(bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi)* foydalangan holda amalga oshiradi. Tashkilotchi, buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari ERI kalitisiz o‘zlarining shaxsiy kabineti orqali elektron davlat xaridlari tizimida ro‘yxatdan o‘tadilar va tijorat takliflarini yuboradilar.
		4.3		“Elektron tizim avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi: - tashkilotchi, davlat buyurtmachisi va ishtirokchiga kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo‘yicha elektron davlat xaridlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish; - elektron davlat xaridlarini o‘tkazish; - ishtirokchilarni aniqlash va shartnomani shakllantirish; - elektron davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini Davlat soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi ma’lumotlar bazalariga integratsiyalashuvi orqali baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasini ta’minlaydi.”.
		4.4		Ishtirokchilarni xarid jarayonida ishtirok etishi ular tomonidan portaldagi so‘rovnoma-arizani to‘ldirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ishtirokchilarni xaridga kiritish, ularning quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lganda amalga oshiriladi: - shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi; - soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

				- o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi; - insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd etilmaganligi. Ishtirokchi so‘rovnoma-arizada unga nisbatan qo‘llanilgan bankrotlik tartib-taomillari mavjud emasligi hamda soliq va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi haqida ma’lumotlarni tasdiqlaydi. Ishtirokchi so‘rovnoma-arizani to‘ldirgandan so‘ng, elektron tizim Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri ma’lumotlarini tekshirib, unda ishtirokchi to‘g‘risida yozuv mavjud emasligini aniqlaydi.
5	**Tanlashda ishtirok etish va taklif ta’minotini taqdim etish tartibi**	5.1		Takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar Tanlash ishtirokchisining kelishilgan muddat davrida o‘z taklifini qaytarib olmasligiga kafolat beruvchi Tanlash boshlang‘ich narxining 1 % miqdorida pul zakalatini kiritadi. Ishtirokchining pul zakalatini taqdim etishi va qaytarib olish tartibi elektron davlat xaridlari tartib-taomillarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi.
		5.2		Elektron Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi: - https://etender.uzex.uz saytida ro‘yxatdan o‘tadi va ro‘yxatdan o‘tish sahifasida kerakli bo‘limlarni (mijoz turi, shaxsiy ma’lumotlari, aloqa ma’lumotlari va boshqa) to‘ldiradi. “Yakka tartibdagi tadbirkor” va “Rezident” tizimda faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro‘yxatdan o‘tish mumkin; - ro‘yxatdan o‘tish jarayoni tugagandan so‘ng, HKKPda ishtirokchi uchun shaxsiy hisobvaraq ochiladi. Ishtirokchilar ularning HKKPdagi hisob raqamlarida avans to‘lovining yetarli miqdori mavjud bo‘lgan taqdirdagina elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar; - Tanlash shartlari bilan batafsil tanishgandan so‘ng ishtirokchi elektron Tanlashda ishtirok etish uchun ariza beradi va “Umumiy ma’lumot” sahifasida, “Mahsulotlar va buyumlar”, “Talablar” bo‘limlarida zarur ma’lumotlarni to‘ldiradi. Talablar bo‘limida ma’lumot kiritish jarayonida ishtirokchidan biror bir talab bo‘yicha tasdiqlovchi hujjat so‘ralgan bo‘lsa, hujjatni fayl ko‘rinishida yuklash zarur.
		5.3		Ishtirokchilarning zakalati operator tomonidan g‘olib aniqlangunga qadar band qilib qo‘yiladi. Elektron Tanlash g‘olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar band qilib qo‘yiladi. Bunda g‘olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi va mazkur mablag‘lar operator tomonidan davlat buyurtmachilarining tegishli hisobvarag‘iga (byudjet buyurtmachisining byudjetdan tashqari tegishli hisobvarag‘iga) o‘tkazib beriladi.
		5.4		Tashkilotchi tanlash shartlariga muvofiq qabul qilgan ta’minot summasi yoki ta’minotiga oid boshqa hujjatlar quyidagi holatlardan biri ro‘y bergan taqdirda, ishtirokchiga yoki ijrochiga bir ish kuni davomida qaytarilishini ta’minlaydi: - taklifni ta’minlashning amal qilish muddati tugashi; - shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta’minlanishi (agar bunday ta’minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa); - davlat xaridlarining bekor qilinishi; - takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi.

		5.5		Operator elektron Tanlash natijasida shartnoma tuzilganidan so‘ng, bir ish kuni davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisob raqamiga qaytaradi. Operatorning vositachilik yig‘imi ishtirokchining avans to‘lovlaridan ushlab qolinadi. Ishtirokchilarning bandi bekor qilingan pul mablag‘lari, ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida avans to‘lovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki xizmat ko‘rsatadigan banklardagi ularning hisob raqamlariga qaytariladi.
6	**Tanlash takliflarini baholash tartibi**	6.1		Elektron Tanlash xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o‘tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning Tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan hujjatlar uning Tanlash taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlariga mos bo‘lishi hamda elektron tizimdagi to‘ldirilishi majburiy bo‘lgan elektron maydonlar to‘ldirilgan bo‘lishi kerak. Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang‘ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to‘ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lsa, shuningdek, to‘ldirilmagan maydonlar mavjud bo‘lsa yoki biriktirilgan fayllar to‘liq bo‘lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko‘rsatgan holda ishtirokchining Tanlash taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma’lumotlarni ishtirokchining Tanlash taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.
		6.2		**Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:** - Tanlash taklifining Tanlash hujjatlarida va texnik topshiriqda ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish; - ishtirokchining malaka hujjatlari (Tanlash hujjatlari talablarga muvofiq) topshirilgan baholash; - Tanlash taklifining va texnik topshiriqning texnik qismini baholash; - Tanlash taklifining va texnik topshiriqning narx qismini baholash. Bunda elektron tizim Tanlash taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni Tanlash taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so‘ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta’minlaydi.
		6.3		Tanlash takliflarini baholash va Tanlash g‘olibini aniqlash Tanlash hujjatlari va texnik topshiriqning belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va uslublar asosida amalga oshiriladi. Baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi: malaka-texnik qism – 70 ball, narx qismi – 30 ball. Tanlash g‘olibi malaka-texnik va narx qismlari bo‘yicha eng yuqori jami ball to‘plagan ishtirokchi hisoblanadi.
		6.4		Ishtirokchi quyidagi hollarda Tanlashda ishtirok etishdan **chetlashtiriladi:** - u to‘g‘risida Insofsiz ijrochilarning yagona ro‘yxatida qayd mavjud bo‘lsa;

				- unda soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa; - o‘ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo‘lsa; - ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa; - ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa; - ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa; - ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etmagan bo‘lsa; - ishtirokchi shartnoma tuzish huquqiga ega bo‘lmasa; - ishtirokchi joriy buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni ijro etmagan yoki lozim darajada ijro etmagan bo‘lsa; - ishtirokchi imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma’lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki mazkur hududlarda bank hisobraqamlari ochgan bo‘lsa; - ishtirokchi barcha zarur hujjatlar to‘plamini belgilangan muddatda taqdim etmasa yoki o‘z vaqtida taqdim etilgan hujjatlar to‘plami Tanlash hujjatlari talablariga javob bermasa; - ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda; - Tanlash e’lon qilingunga qadar ta’sis etilganiga 3 oy bo‘lmagan bo‘lsa; - bank kafolatini taqdim qilmagan va/yoki hujjatlarni topshirishning oxirgi sanasiga qadar belgilangan miqdorlarda zakalat summasini o‘tkazmagan bo‘lsa; - muassislari bitta yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lgan ishtirokchilar. Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to‘g‘risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi bayonnomaga (hisobotga) kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.
		6.5		Agar Tanlash taklifi Qonunning va Tanlash hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi Tanlash hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo‘yicha *xarid komissiyasi xulosalari komissiyaning mas’ul kotibi tomonidan joylashtiriladi va komissiya tomonidan tasdiqlanadi.* Ishtirokchining Tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to‘g‘risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

		6.6		Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi elektron Tanlash ishtirokchilaridan ularning Tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o‘tkaziladi. Tushuntirish berish jarayonida berilgan taklif va narx bo‘yicha o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.
		6.7		Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran **yetti ish kunidan** oshishi mumkin emas.
7	**Elektron Tanlashda ishtirok etish uchun taklif berish**	7.1		Tanlashda ishtirok etish uchun taklif davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarda tayyorlanadi.
		7.2		Tanlash ishtirokchilari Tanlash bo‘yicha elektron takliflarni o‘zlarining shaxsiy kabinetlari orqali e’londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar. Davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan Tanlash taklifi ishtirokchi tomonidan tasdiqlanadi.
		7.3		Tanlash taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin. Shu bilan birga, ishtirokchilarning Tanlash takliflari elektron tizimdagi shablonlarga muvofiq hujjatlar ilova qilinadi Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar ilova qilingan hujjatlardagi ma’lumotlarga mos kelishi shart.
		7.4		Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron Tanlash ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas’ul kotibi va a’zolari tomonidan ko‘rilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.
		7.5		Elektron Tanlash ishtirokchisi: - bitta lotga faqat bitta Tanlash taklifini berishga haqli; - taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi; - Tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan Tanlash taklifini qaytarib olishga yoki unga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.
		7.6		Joylashtirilgan e’londa ko‘rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim Tanlash takliflarini qabul qilishni to‘xtatadi.
		7.7		Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo‘limiga kiritiladi.
8	**Tanlash takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish**	8.1		Zarur bo‘lgan hollarda tashkilotchi tomonidan Tanlash takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki elektron Tanlash ishtirokchilariga Tanlash takliflari qabul qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma’lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.
		8.2		Tashkilotchining xarid komissiyasi Tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin Tanlash hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda ushbu Tanlashda takliflar berish tugaydigan muddat kamida besh ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e’londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, Tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa o‘zgartishlar kiritiladi.

9	**Elektron Tanlash natijalarini sarhisob qilish**	9.1		Elektron tizim va xarid komissiyasi tomonidan tanlash takliflari malaka-texnik va narx qismlari bo‘yicha baholanadi. Tanlash g‘olibi 100 ballik baholash natijalariga ko‘ra eng yuqori jami ball to‘plagan ishtirokchi deb aniqlanadi. Ballar teng bo‘lgan taqdirda, malaka-texnik qismi bo‘yicha yuqori ball olgan ishtirokchiga ustunlik beriladi. Zaxira g‘olibini aniqlash ushbu bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
		9.2		Quyidagi hollarda Tanlash o‘tkazilmagan deb topiladi: - agar Tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa; - agar xarid komissiyasi malakaviy va texnik baholash bosqichida barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa yoki faqat bitta taklif Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa. Bunday holatda buyurtmachi Tanlashni ayni o‘sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o‘sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.
		9.3		Xarid komissiyasi a’zolari elektron tizimda avtomatik ravishda shakllangan yig‘ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko‘chirma elektron tizimda avtomatik ravishda e’lon qilinadi.
		9.4		Elektron Tanlashning istalgan ishtirokchisi Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasi e’lon qilinganidan so‘ng Buyurtmachiga elektron Tanlash natijalari bo‘yicha tushuntirishlarni taqdim etish to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Buyurtmachi bunday so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran besh ish kuni ichida elektron Tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.
10	**Boshqa shartlar**	10.1		Tanlash g‘olibi tuzilayotgan shartnomaning umumiy summasining 1% miqdorida shartnoma majburiyatlarini bajarish kafolatini taqdim etadi.
		10.2		Elektron Tanlash ishtirokchisi Tanlash hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali Tanlash takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin so‘rov yuborishga haqli. Mazkur so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida Tashkilotchi, agar ushbu so‘rov Buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo‘lsa, Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o‘zgartirmasligi kerak.
		10.3		Elektron Tanlash ishtirokchisi Tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan Tanlash taklifini qaytarib olishga yoki unga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.
		10.4		Tashkilotchi g‘olib bo‘lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda Tashkilotchi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida elektron tizim orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e’lon qiladi.
11	**Tanlash natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish**	11.1		Elektron Tanlash natijalari bo‘yicha shartnoma Tanlash hujjatlarida va Tanlash g‘olibi taklifida ko‘rsatilgan shartlar asosida g‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab 5 ish kunlik muddatdan kechiktirmasdan elektron hujjat shaklida tuziladi. Shartnoma tomonlarning elektron

				raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi va Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.
		11.2		G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib, g'olib tomonidan taklif etilgan narxda shartnoma tuzadi (agar zaxira g'olibi tomonidan taklif qilingan narx g'olib taklif qilgan narxdan past bo'lmasa) yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, Tashkilotchi yangi Tanlash o'tkazadi.

TANLASH HUJJATINING TEXNIK QISMI

1) Texnik talablar ushbu Tanlash hujjatlarining ajralmas qismi hisoblangan "Texnik topshiriq"ga muvofiq belgilangan.

2) Xizmat ko'rsatish jarayonida sanitariya qoidalari, gigiyena normalari, oziq-ovqat xavfsizligi (saqlash, tashish, tayyorlash, tarqatish), brakeraj tartibi, kunlik sinama (nazorat namunalari), xodimlarning tibbiy ko'rik hujjatlari va sanitariya kiyimi talablari bajarilishi shart.

3) Monitoring (komissiya): autsorsing xizmatlarini ko'rsatish sifatini tizimli nazorat qilish maqsadida Agentlik, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik xizmati, jamoat salomatligi qo'mitasi hamda hududiy bo'linmalar mas'ul xodimlari ishtirokida monitoring (komissiya) tashkil etilishi mumkin.

Monitoring doirasida quyidagilar tekshiriladi: taomnoma va menyu-reja bajarilishi;

mahsulotlar sifati va kuzatuv hujjatlari (sertifikat/yorliq/markirovka);

texnologik jarayon va texkartalar bo'yicha grammaj;

ombor va muzlatkichlarda saqlash rejimi; sanitariya-gigiyena holati;

brakeraj daftarlari va kunlik sinamalar;

xodimlar tibbiy ko'rik va gigiyenik o'qitish hujjatlari;

Axborot tizimidagi kontingent va "kishi-kun" ma'lumotlari;

dalolatnoma va kamchiliklarni bartaraf etish rejalari.

4) Hisobot: G'olib Buyurtmachiga (zarur hollarda hududiy boshqarma/Agentlikka) xizmat ko'rsatish bo'yicha oylik hisobot, shuningdek ovqatlanish bo'yicha kunlik/haftalik ichki hisob-kitoblarni taqdim etadi (taomnoma ijrosi, kontingent, mahsulotlar kirimi-chiqimi, brakeraj natijalari).

5) Investitsiya majburiyati: g'olib Ijrochi shartnoma umumiy summasining kamida 1 foizidan kam bo'lmagan miqdorda Buyurtmachi muassasasiga investitsiya kiritish (uskunalar, inventar, ta'mirlash va boshqalar) majburiyatini qabul qiladi; investitsiya shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

1-ilova

Ishtirokchilar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar va malaka-texnik saralash mezonlari:

Dastlabki malaka tanlovi xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi. Agar talab qilingan ma’lumotlar ishtirokchi tomonidan taqdim etilmagan bo‘lsa, xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishga yo‘l qo‘ymaslik huquqiga ega. Ishtirokchining Tanlash taklifi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan (majburiy bo‘lgan) mezonlardan biriga muvofiq kelmagan taqdirda, ushbu nomuvofiqlik tanlashning har qanday bosqichida ishtirokchining chetlatilishiga olib keladi.

Baholash usuli: 100 ballik tizim asosida “Eng yaxshi taklifni tanlash usuli” *(malaka-texnik qism – 70 ball, narx qismi – 30 ball).*

Malaka va texnik baholash natijalariga ko‘ra belgilangan talablarga javob bergan ishtirokchilar narx takliflarini baholash bosqichiga o‘tkaziladi.

Tanlashning narx qismi uchun minimal o‘tish balli 30 ball etib belgilanadi.

Baholash mezonlari turlari – matn qiymati.

T/r	Mezon	Baholash	Zaruriyligi	Izoh
1	Shartnoma umumiy summasining kamida 1 (bir) foizdan kam bo‘lmagan miqdorda autsorsing xizmatini ko‘rsatadigan tizim tashkilotiga investitsiya kiritishga roziligi.	Taqdim etilgan: 10 Yetarli bo‘lmasa: 5 Taqdim etilmagan: 0	Majburiy	Ishtirokchi shartnoma umumiy summasining kamida 1 foizi miqdorida investitsiya kiritishga roziligi haqida kafolat xatini taqdim etadi. Kafolat xatida investitsiya yo‘nalishlari *(jihoz, inventar, ta’mirlash, moddiy-texnik baza mustahkamlash va boshqalar)* hamda taxminiy qiymatlar ko‘rsatiladi. *10 ball – kafolat xati to‘liq taqdim etilib, 1 foiz investitsiya miqdori, yo‘nalishlari va taxminiy qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘lsa.* *5 ball – kafolat xati taqdim etilgan, biroq investitsiya yo‘nalishlari yoki taxminiy qiymatlari to‘liq ko‘rsatilmagan bo‘lsa.*
2	Autsorsing xizmati bo‘yicha kamida uch oylik shartnoma summasiga teng aylanma mablag‘larga ega bo‘lish.	Taqdim etilgan: 10 Yetarli bo‘lmasa: 5 Taqdim etilmagan: 0	Majburiy	Ishtirokchi kamida uch oylik xizmat ko‘rsatish qiymatini qoplashga yetarli aylanma mablag‘lari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Bunda bank hisobvaraqlaridagi qoldiq to‘g‘risida bank ma’lumotnomasi, moliyaviy hisobotlar, pul oqimi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma yoki boshqa moliyaviy tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

				Hujjatda summa aniq ko‘rsatilishi lozim. (***Bank malumotomasi sanasiga etibor berish kerak)*** *10 ball – 6 oylikdan ko‘p qoplaydi.* *5 ball – 3-5 oylikdan ko‘p qoplaydi.* *0 ball – taqdim etilmagan.*
3	Taklif qilingan texnik topshiriq yuzasidan kafolat xati hamda buyurtmachi tomonidan joylashtirilgan texnik topshiriqqa mos kelishi.	Taqdim etilgan: 5 Yetarli bo‘lmasa: 3 Taqdim etilmagan: 0	Majburiy	Ishtirokchi buyurtmachi tomonidan joylashtirilgan texnik topshiriq talablariga muvofiq xizmat ko‘rsatishga tayyorligi haqida kafolat xatini taqdim etadi. Taklifda xizmat ko‘rsatish tartibi, hajmi, muddati, sifat talablari va texnik topshiriqda belgilangan boshqa shartlarga mosligi aks ettiriladi. *5 ball – kafolat xati taqdim etilgan va taklif buyurtmachi tomonidan joylashtirilgan texnik topshiriq talablariga to‘liq mos bo‘lsa.* *3 ball – kafolat xati taqdim etilgan, biroq taklifda texnik topshiriq talablariga nisbatan ayrim noaniqlik yoki kamchiliklar mavjud bo‘lsa.* *0 ball – kafolat xati taqdim etilmagan yoki taklif texnik topshiriqning asosiy talablariga mos kelmasa.*
4	Faoliyatni amalga oshirish uchun zarur ruxsat etuvchi hujjatlar, sanitariya-epidemiologik xulosalar hamda oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini tasdiqlovchi sertifikatlarning mavjudligi.	Taqdim qilingan: 10 Yetarli bo‘lmasa: 5 Kam bo‘lganda: 3	Majburiy	Ishtirokchi faoliyat turi uchun talab etiladigan ruxsat etuvchi hujjatlar, sanitariya-epidemiologiya xulosalari, muvofiqlik sertifikatlari, sifat va xavfsizlikni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Hujjatlar amal qilish muddati tugamagan bo‘lishi shart hamda eng kamida 2025 yildan keyin tasdiqlangan bo‘lishi shart. *10 ball – 20 tadan ortiq.* *5 ball – 11dan 19 tagacha.* *3 ball – 10 tagacha.* *(Muddati o‘tgan, shuningdek amaldagi sanitariya qoidalari va normalari talablariga muvofiq rasmiylashtirilmagan sertifikatlar baholash jarayonida inobatga olinmaydi).*

5	Autsorsing (ovqatlantirish) xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajribasi, xizmat ko‘rsatgan tashkilotlar soni va sifati.	Taqdim qilingan: 15 Yetarli taqdim etilmagan: 10 Kam bo‘lganda: 5	Baholash uchun taqdim qilinishi shart	Ishtirokchi so‘nggi 3 yil davomida xizmat ko‘rsatgan tashkilotlar ro‘yxatini taqdim etadi *(nomi, manzili, xizmat turi, muddati, shartnoma summasi bilan).* Xizmat ko‘rsatgan tashkilotlardan kamida 5 ta tavsiyanoma ilova qilinadi. Ma’lumotlar jadval shaklida tasdiqlangan bo‘lishi lozim. *15 ball – 5 tadan ko‘p tashkilot va tavsiyanomalari mavjud bo‘lsa.* *10 ball – 3-4 ta.* *5 ball – 1-2 ta.*
6	Autsorsing xizmatini sifatli tashkil etish uchun ishtirokchi amaldagi SanQvaN talablariga muvofiq tuzilgan, mahsulot me’yorlari va muvozanati ta’minlangan taomnoma hamda menyu-kalkulyatsiya hujjatlarini taqdim etishi, bunda har bir taom bo‘yicha chiqish vazni (grammaj), tarkibi, mahsulot sarfi va (zarur bo‘lsa) yosh toifalari kesimida me’yorlarga mosligi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi.	Taqdim qilingan: 25 Yetarli bo‘lmasa: 15 Taqdim qilinmagan: 0	Majburiy	Ishtirokchi amaldagi SanQvaN talablariga muvofiq taomnoma, menyu-kalkulyatsiya, har bir taom bo‘yicha chiqish vazni, tarkibi, mahsulot sarfi, zarur hollarda yosh toifalari kesimidagi me’yorlar, ozuqaviy qiymat va kaloriyalilik ko‘rsatkichlarini taqdim etadi. Hujjatlar jadval shaklida, tashkilot raxbari tomonidan tasdiqlangan va imzolangan bo‘lishi lozim. *25 ball – to‘liq SanQvaN mos.* *15 ball – taomnoma va menyu-kalkulyatsiya SanQvaN talablariga to‘liq mos emas, masalan, ayrim ma’lumotlar, jumladan chiqish vazni, ozuqaviy qiymat, kaloriyalilik yoki yosh toifalari bo‘yicha ma’lumotlar qisman to‘liq bo‘lmasa, shuningdek ayrim mahsulotlar noto‘g‘ri kiritilgan, mahsulot nomlarida xatoliklar mavjud yoki mahsulotlar taom tarkibiga mos ravishda ko‘rsatilmagan bo‘lsa.* *0 ball – taomnoma SanQvaN talablariga mos kelmasa, asosiy ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa yoki hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa.*

7	Shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi.	Taqdim qilingan: 25 Nisbatan past bo‘lsa: 15 Taqdim qilinmagan: 0	Majburiy	Ishtirokchi autsorsing xizmatini bajarish uchun mavjud moddiy-texnik baza, oshxona va ishlab chiqarish jihozlari, omborxona, sovitkich uskunalari, transport vositalari, inventarlar hamda xodimlar tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Mazkur ma’lumotlar ro‘yxat shaklida, iloji bo‘lsa foto hamda tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslantiriladi. Kadrlar bo‘yicha shtat ro‘yxati tashkilot raxbari tomonidan tasdiqlangan bo’lishi xamda diplom va malaka hujjatlari nusxalari ilova qilinadi. *25ball – quyidagi barcha asosiy resurslar to‘liq mavjud bo‘lsa: oshxona/ishlab chiqarish jihozlari, omborxona, sovitkich uskunalari, transport vositalari, inventarlar hamda malakali xodimlar tarkibi. Ma’lumotlar ro‘yxat, foto va tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslantirilgan bo‘lsa.* *15 ball – asosiy resurslarning kamida 3–4 tasi mavjud bo‘lsa, biroq ayrim jihozlar, transport, inventar yoki kadrlar bo‘yicha kamchiliklar mavjud bo‘lsa yoxud tasdiqlovchi hujjatlar to‘liq taqdim etilmagan bo‘lsa.* *0 ball – mavjud emas.*
Jami		**100**	-	-

Izoh: *Hududlar va tashkilotlarning o‘ziga xos shart-sharoitlari (joylashuvi, quvvati, kontingenti, ovqatlantirish mahali (rejimi), xizmat hajmi va moddiy-texnik imkoniyati)dan kelib chiqib, mazkur mezonlar tanlov (xarid) komissiyasi tomonidan qonunchilik, e’lon va texnik topshiriq talablariga zid bo‘lmagan holda aniqlashtirilishi yoki ularga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunda majburiy talablar va xavfsiz ovqatlantirish bo‘yicha asosiy talablar saqlanadi.*

Takliflar narxini baholash.

Narx takliflari xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilarning narx (ustama haq) bo'yicha taqdim etgan hujjatlari asosida ko'rib chiqiladi hamda malaka (saralash) talablari bajarilgan ishtirokchilar orasida baholanadi.

T/r	Mezon	Baholash	Izoh
1.	Eng past ustama haqini taklif	Eng past ustama haq (%)ni taklif etgan ishtirokchiga maksimal 30 ball beriladi	Qolgan ishtirokchilarning ballari eng past taklifga nisbatan hisoblab chiqiladi.*

Izoh: *Izoh (eslatma): Ijrochi tomonidan taklif etiladigan ustama haq miqdori 30 foizdan oshmasligi shart. Ustama haq 30 foizdan yuqori ko'rsatilgan takliflar talablarga javob bermaydi va ko'rib chiqilmaydi (rad etiladi).*

Hisob-kitob natijalari kasr sonlarda aniqlangan taqdirda, yaxlitlanadi.Ishtirokchilarning narx takliflarini teng shartlarga keltirish maqsadida ishtirokchilarning Tanlash takliflarini baholashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa yig'imlar) summasi hisobga olinadi.

** Narx takliflari 30 ballik tizim asosida baholanadi.*

Bunda eng past ustama haq (%)ni taklif etgan ishtirokchiga maksimal 30 ball beriladi.

Qolgan ishtirokchilarning narx takliflari eng past taklifga nisbatan quyidagi formula asosida baholanadi:

Ball = (eng past ustama haq / ishtirokchi taklif etgan ustama haq) x 30.

Uychi tumanidagi 1-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori: N.Maxamadaliyeva

1-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

_____-son

Sana: _____

Xarid komissiyasiga

KAFOLAT XATI

2-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi ushbu xat bilan:

1) Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligini;

2) Taqdim etilgan barcha ma'lumot va hujjatlarning haqqoniyligini tasdiqlaydi;

3) Tanlash hujjatlarida belgilangan barcha majburiy va baholash mezonlariga rioya etishini kafolatlaydi.

4) Tanlash natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan taqdirda, shartnoma umumiy summasining kamida 1 foizi miqdorida investitsiya kiritishga roziligini hamda ushbu investitsiyalarni moddiy-texnik bazani mustahkamlashga yo'naltirishini;

5) Insofsiz ijrochilar Yagona reyestrida mavjud emasligini tasdiqlaydi.

6) Shartnoma ijrosi davomida autsorsing xizmatlarini amaldagi sanitariya qoidalari va me'yorlariga (SanQvaN) to'liq muvofiq ravishda tashkil etishini;

7) Xizmat ko'rsatish uchun zarur moddiy-texnik baza, malakali kadrlar va logistika imkoniyatlari mavjudligini hamda ularni shartnoma ijrosi davomida uzluksiz ta'minlashini;

8) Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, sifat nazorati hamda hisob-kitob va ombor hisobi tizimlarini yuritishini;

9) Tanlash jarayonida va shartnoma ijrosida amaldagi qonunchilik talablariga to'liq rioya etishini kafolatlaydi.

Rahbar F.I.Sh: **Maxamadaliyeva Nazira Erkinboyevna**

Imzo: _____

M.O'.

2-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

_____ -son

Sana: _____

Xarid komissiyasiga

Tanlash ishtirokchisi bo‘yicha umumiy ma‘lumot

1 Yuridik shaxsning to‘liq nomi, tashkiliy huquqiy shakli, STIR raqami

2 Yuridik manzili

3 Bog‘lanish uchun telefon, faks, e-mail

4 To‘liq bank rekvizitlari

5 Faoliyatining asosiy yo‘nalishi

6 Benefitsiarlari to‘g‘risida ma‘lumot (mulkdorlari/muassislari)

7 Xodimlar soni va asosiy mutaxassislar haqida ma’lumot

8 Moddiy-texnik baza haqida qisqacha ma’lumot

9 So‘nggi 3 yil ichida xizmat ko‘rsatgan tashkilotlar soni

Rahbar F.I.Sh: _____

Imzo: _____

M.O‘.

3-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

Xarid komissiyasiga

Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘yilmaslik bo‘yicha

ARIZA

Ushbu xat bilan **"Namangan viloyat Uychi tumanidagi 1-sonli ko’p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti** kompaniyasi:

1) O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi O‘RQ–684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Qonuni talablariga rioya etishni;

2) Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining amaldagi yoxud sobiq mansabdor shaxsiga, shuningdek xodimiga bevosita yoki bilvosita har qanday mukofot bermaslikni va taklif etmaslikni, tanlash jarayonida Buyurtmachining biron-bir harakatini sodir etishga, qarorini qabul qilishga yoki biror-bir tanlash taomilini qo‘llanilishiga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida ishga yollash haqida taklifni yoki har qanday qimmatli narsani yoki xizmatni bevosita yoki bilvosita ravishda taklif qilmaslikni;

3) Raqobatga qarshi harakatlarni sodir etmaslikni, shuningdek manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslikni;

4) Firibgarlik, ma‘lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiyani oldini olishga;

5) Yolg‘on ma‘lumotlar yoki qalbaki hujjatlarni taqdim etmaslikni hamda mazkur lotda ishtirok etuvchi affillangan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor etishni o‘z zimmasiga oladi.

6) Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini, shuningdek Ishtirokchi ta‘sischilari va/yoki xodimlari orasida ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yaqin qarindoshlari mavjud emasligini;

7) Narxlarni yoki tanlash natijalarini o‘zgartirish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan til biriktirmaslikni tasdiqlaymiz.

Rahbar F.I.Sh : _____

Imzo: _____

M.O‘.

4-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

Xarid komissiyasiga

TEXNIK KAFOLAT XATI

_____(tashkilot nomi)_____ ushbu tanlash bo‘yicha texnik topshiriq va xarid hujjatlari bilan to‘liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi. Agar tashkilotimiz Tanlashda g‘olib deb topilgan taqdirda, biz tovar (ish, xizmatni) texnik shartlarga va xarid hujjatlariga to‘liq muvofiq ravishda yetkazib berishni (bajarishni), ovqatlantirish xizmatlarini amaldagi sanitariya qoidalari va me’yorlariga (SanQvaN) muvofiq tashkil etishini kafolatlaydi.

Rahbar F.I.Sh : _____

Imzo: _____

M.O‘.

5-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

_____-son
Sana: _____

Xarid komissiyasiga

MODDIY-TEXNIK BAZA VA LOGISTIKA
TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

1. Oshxona jihozlari (ro‘yxat ilova qilinadi);

2. Ombor mavjudligi (manzil va sig‘imi);

3. Sovitkich uskunalari (turlari va soni);

4. Transport vositalari (sovitkichli/oddiy, soni);

5. Zaxira oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi.

Rahbar F.I.Sh : _____

Imzo: _____

M.O‘.

6-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

_____-son

Sana: _____

Xarid komissiyasiga

MOLIYAVIY IMKONIYATLAR
TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

1. Oxirgi 12 oy davomida aylanma mablag‘lar hajmi (ilova qilinadi);

2. Bank hisobvaraqlaridagi mavjud qoldiq (ilova qilinadi);

3. Kamida 3 oylik shartnoma qiymatini qoplash imkoniyati mavjudligini tasdiqlaymiz.

Rahbar F.I.Sh : _____

Imzo: _____

M.O‘.

7-son shakl

ISHTIROKCHI MAXSUS BLANKASIDA

_____-son

Sana: _____

Xarid komissiyasiga

ISHTIROKCHI TAJRIBASI
TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Oxirgi 3 yil davomida bajarilgan ishlar (xizmatlar):

T/r	Tashkilot nomi	Shartnoma muddati	Summasi	Tavsiyanoma mavjudligi
…				

Rahbar F.I.Sh : _____

Imzo: _____

M.O‘.